

ANALYSIS OF THE LITERATURE ABOUT SALMONELLESIS

Mengliyev G'ayrat Akromovich

Samarkand State Veterinary Medicine, Animal Husbandry and
University of Biotechnology Tashkent Branch Associate Professors

Sabirova Iroda Khalilla daughter

Samarkand State Veterinary Medicine, Animal Husbandry and
University of Biotechnology Students of Tashkent Branch

Imomnazarov Saidakbar Saidahmad oglu

Samarkand State Veterinary Medicine, Animal Husbandry and
University of Biotechnology Students of Tashkent Branch

SALMONELLEZ KASALLIGI HAQIDA ADABIYOTLAR TAHLILI.

Samarqand Davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti
Toshkent filiali dotsenti

Mengliyev G'ayrat Akromovich
Samarqand Davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Toshkent filiali talabalari
Sobirova Iroda Xalilla qizi

Imomnazarov Saidakbar Saidahmad o'g'li

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bakteriyalogik kasalliklardan biri bo'lgan salmonellez haqida ma'lumotlar berilgan. Salmonellez - abort, toksemiya, bakterimiya yoki hayotchanligi past hayvonlarning tug'ilishi kabi belgilar bilan harakterlanadigan infeksiyon kasallik bo'lib, bu kasallik deyarli barcha hayvonlarda uchraydi. Ko'proq yosh hayvonlar: 1 kunlik jo'jalar, buzoqlar, qulunlar, qo'zilar, uloqlar va cho'chqa bolalari kasallikga moyil hisoblanadi.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье представлена информация о сальмонеллезе, одном из бактериологических заболеваний. Сальмонеллез — инфекционное заболевание, характеризующееся такими симптомами, как аборт, токсемия, бактериемия или рождение маложизненных животных, болезнь, поражающая почти всех животных. Больше молодняка: более подвержены заболеванию однодневные цыплята, телята, рабы, ягнята, козлята и поросята.

ANNOTATION

This article provides information about salmonella, one of the bacteriological diseases. Salmonellosis is an infectious disease characterized by symptoms such as abortion, toxemia,

bacteremia, or the birth of low-life animals, a disease that affects almost all animals. More young animals: 1-day-old chickens, calves, slaves, lambs, kids, and piglets are more susceptible to the disease.

Kalit so'zlar: Yosh hayvonlar, kasallikka moyillik, bakterimiya, abort, yallig'lanish.

Ключевые слова: Молодняк, восприимчивость, бактериемия, аборт, воспаление.

Keywords: Young animals, susceptibility, bacteremia, abortion, inflammation.

Salmonelloz kasalligining tarixiga nazar soladigan bo'lsak, Salmonella guruhining birinchi vakili, Salmonella Suipestifer, 1885 yilda Amerikalik veterinar shifokorlari Salmon va Smit tomonidan aniqlangan bo'lib, ular bu noma'lum kasallik qo'zg'atuvchisini vabodan o'lgan cho'chqaning organlaridan ajratib olishgan. Ba'zi bir adabiyotlarda cho'chqaning tana go'shtidan ajratib olishgan deya yozilgan. Umuman olganda birinchi bor cho'chqa organizmida aniqlangan kasallik qo'zg'atuvchisi keyinchalik, 1888-yilda A.Gertner o'z ilmiy ishi "Odam zaharlanishining etiologiyasi" ni ochib berishi davomida, aynan shu kasallik qo'zg'atuvchisini sigir go'shtida hamda o'lgan odam talog'ida topadi. (U Vast deb nomlanadi.) Aynan shu kasallik qo'zg'atuvchisini 1892-yilda F.Leffler o'lik sichqonlardan ajratib oladi va unga Bakt deb nom berdi. Xalqaro mikrobiologlar jamiyati 1934-yilda Salmon sharafiga, u ajratgan kasallik qo'zg'atuvchisiga Salmonella, undan kelib chiqadigan oziq-ovqat zaharlanishi bilan kechadigan kasalliklarni Salmonellyoz deb atashga qaror qilishgan. Bu kasallik ko'proq yosh hayvonlarda uchraganligi uchun ham, yosh hayvonlarning salmonellyozi (paratif infeksiyalari) haqidagi birinchi ma'lumotlar XIX asrning oxiriga to'g'ri keladi, lekin bu kasalliklarning asosiy masalalari XX asrning birinchi choragidan o'rganila boshlangan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda buzoqlarning paratifoidi 1926 yilda, qo'ylarning paratifoidi birinchi marta 1929-yilda A. V. Sinev va S. K. Bezzubets tomonidan o'rganilgan.

Bu kasallik deyarli barcha qishloq xo'jalik hayvonlarida uchraydi. Asosan yosh hayvonlarning kasallikka moyilligi bo'lib, buzoq, qo'zi, jo'jalar, cho'chqa bolalari ilk kunlaridan kasallanishlari mumkin. Katta yoshdagi hayvonlarda abort ko'rinishi ko'proq uchraydi. Ya'ni biya, qo'y, echki, sigir, cho'chqalar bola tashlaydi.

Hozirgi kunda salmonellozning hayvon turiga qarab quyidagilari farqlanadi:

qo'y va echkilarida - S. abortus ovis

buzoqlarda - S. dublin

cho'chqalarda - S. cholera

otlarda - S. abortus equi

parrandalarda - qallinarum - pullorum va S. typhimurium qo'zg'aydi.

Salmonelloz qo'zg'atuvchisi spora hosil qilmaydigan tayoqchasimon bakteriya bo'lib, uzunligi 2-4 mkm, eni 0,5 mkm bo'lgan kapsula. U tashqi muhit ta'siriga chidamli bo'lib, tuproqda, go'ngda, suvda oylab yashaydi. 70-75°C qizdirilganda 15-20 minut davomida o'ladi, 2-10°C issiqlikda 115 kungacha o'z hayotchanligini saqlaydi.

Yuqish yo'llari: Kasal va kasallanib tuzalgan hayvon Salmonelloz qo'zg'atuvchisining sog'lom hayvonlarga yuqishiga asosiy sababchi bo'lib qoladi. Asosan kasal hayvondan chiqqan har

qanday ajratma: siydik, tezak, burun oqmalari, sut, tashlangan homila, homila suyuqliklari, homila tashlangandan keyin qindan oqadigan suyuqliklar kasallik tarqalishining asosiy manbayidir.

Salmonella endotoksini ta'sirida hayvonlar ichagining shilimshiq qavatida yallig'lanish kuzatiladi. Uning limfa apparatidan bakteriyalar mezenterial limfa tugunlariga, undan qonga o'tadi. Bakteremiya, toksemiya, isitma hayvonning ancha holsizlanib qolishiga olib keladi. Undan keyin salmonellalar turli xil ichki organlarda saqlanib yallig'lanish va nekrobiotik jarayonlarning avj olishiga sabachi bo'ladi. Shu o'rinda bachadonning zararlanishi oqibatida abort yoki hayotchanligi past hayvonlarning tug'ilishiga olib keladi. Katta yoshdagi qo'y echkilarda kasallikning birinchi belgilari tana haroratining ko'tarilishi bilan boshlanib kasal hayvon bola tashlaydi. Abortdan keyin ko'p hollarda yo'ldosh ushlanib qoladi va metrit kuzatiladi. Odatda kasal hayvon o'ladi. Ba'zan esa hayotchanligi past hayvonlar tug'iladi va ularda hayotining ilk kunlaridanoq isitma, xansirash, yo'tal kuzatilib, burun bo'shligidan shilimshiq yiring oqadi. Keyin esa qon aralash ich ketish kuzatiladi. Hayotchanligi past bo'lgani uchun o'lim (letallik) juda kuchli bo'lishi mumkin. Yoshiga yetgan qo'zilar qo'ylarda qo'shimcha ravishda gastroenterit belgilari kuzatilishi mumkin.

Biyalarda kasallik simptomsiz va o'tkir o'tadi. Inkubatsion davri 2-3 kun, ba'zan 10 haftagacha cho'zilishi mumkin. Kasallikning erta bosqichlarida abort sezilmay o'tishi mumkin, ko'pchilik hollarda esa 4-8 oylik bo'g'oz hayvonlarda to'satdan abort kuzatilishi mumkin. Abort paytida bola bachadon pardalari bilan birga chiqadi va biyalarda tana harorati ko'tariladi. Qindan oq shilimshiq oqadi. Abortdan so'ng mastit bo'lishi mumkin. Bunday hollarda isitma 1-4 haftaga cho'ziladi, hayvonlar holsizlanib, oziqlanmay qo'yadi. Ba'zi hollarda asorat qolishi ham mumkin ya'ni bunda asoratlari artrit, bursit va teri osti kletchatkasining absessi ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Og'ir hollarda asoratlari hayvonlarni o'limga olib kelishi mumkin.

Kasallangan biyalar vaqtida tuqqan taqdirda ham, odatda qulunning hayotchanligi past bo'lib, tez orada pioseptitsemiyaning o'lishi mumkin.

Buzoqlarda salmonellyoz o'tkir, surunkali, ba'zan abortiv shaklda o'tadi. O'tkir shakllarda, inkubatsion davr 5-8 sutka bo'lib, kasallikning ilk belgilari isitma, puls va nafas olish tezlashadi, serozli rinit va konyuktivit rivojlanadi. Ko'pchilik buzoqlarda 2-3 kun asosiy klinik belgi - ko'proq shilimshiq qon aralash diareya (ich ketish) paydo bo'ladi. Hayvon ishtahasi yo'qolib, kam harakatchan bo'lib qoladi. Kasallik og'ir o'tganda, ko'pincha buyraklarga asorat berishi mumkin. Agar tez yordam choralari ko'rilmasa, kasal hayvonlar 10-12 kun ichida o'lishi mumkin. Kasallik surunkali rivojlanganda hazm organlardagi zararlanish pasayib, ishtaha paydo bo'ladi, oshqozon-ichak faoliyati normallasadi, lekin nafas olish organlari sistemasining zararlanishi kuchayishi natijasida bronxopnevmoniya rivojlanadi. Kasallik bo'g'imning yallig'lanishi, hayvonning oqsashi bilan ajralib turadi. Salmonellyoz surunkali formasi buzoqlarda uzoq hafta va oylar davom etishi mumkin. Kasal buzoqlar ko'p yotadi, oriqlaydi, agar ular davolanmasa 50 % gacha o'lishi mumkin.

Davolash uchun: sintomitsin, levomitsetin, xlortetratsiklin, tetratsiklin, gidrokslorid, terramitsin singari antibiotiklar beriladi. Yirik shoxli hayvonlarga muskul orasiga qo'shimcha penitsillin, sulfanilamidlar (norsulfazol, etazol va boshqalar) yuboriladi. Davolovchi zardoblar va bakteriofaglar qo'llash ham yaxshi samara beradi.

Buzoqlar salmonellyoziga qarshi konsentrlangan formolachchiqtoshli vaksina.

Cho'chqa bolalari salmonellyoziga qarshi vaksina - 50% S.choleraesuis,25% S.typhimurium, 25% S.dublin shtammlaridan tayyorlangan.

Cho'chqalar salmonellyoziga qarshi quruq tirik vaksina S.choleraesuis ning TS-177 Shtammdan tayyorlangan.

Buzoqlar salmonellyoziga qarshi vaksina S.dublin N 6 shtammdan tayyorlangan.

Qo'ylar salmonellyoziga qarshi polivalentli formol-tiomersalli vaksina.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, salmonellez kasalligi juda xavfli bo'lib oldini olinmasa, hayvonlar orasida o'lim ko'payib ketadi va xo'jalikka katta iqtisodiy zarar keltirishi mumkin. Bu kasallikning oldini olish uchun xo'jaliklarda zoogigiyena va veterinariya sanitariyasi, zootexniya qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak. Umuman olganda xo'jaliklarda uchraydigan ko'pchilik kasalliklarning asosiy sababi veterinariya sanitariya va zoogigiyena qoidalari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidir. Buning oqibatida juda ko'plab kasalliklar barq urib rivojlanadi. Yangi tug'ilgan mollarga bakterial (atsidofilin, PABK), tetrasiklinli preparatlarni berish. Va har bir hayvon turiga mos maxsus emlamalar qo'llash, va agar kasallik uchrab qolsa karantin e'lon qilish kerak. Xo'jalikka chetdan olib kelinayotgan hayvonlarni veterinariya ko'rigidan o'tkazish kerak. Ushbu chora tadbirlarni qo'llaganimizda ancha-muncha kasallikning oldini olgan bo'lamiz. Kasallikni davolagandan ko'ra oldini olgan yaxshiroq degan gapni eslash kifoya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Veterinariya mutaxassislari uchun qisqacha ma'lumotnoma B.Sayitqulov, H.Salimov, A.Oripov, K. Norboyev
2. Epizootologiya va mikrobiologiya asoslari J.Shopulatova, X.Burxonov, Ya.Jiyanov "MEHNAT" nashriyoti, 1991.
- 3.Veterinariya mikrobiologiya va mikrobiologiya N.M.Kolichev, R.G.
- 4.<https://www.ziyonet.uz>
5. <https://www.hozir.orgn.uz>